

## SOVET TUZUMI DAVRIDA XOTIN –QIZLARNING TA'LIMIGA BO'LGAN MUNOSABAT

**Maxmudova Nilufarxon Adixamovna**

**Mustaqil tadqiqotchi: Andijon tumanidagi 32-maktab direktori, magistir**  
**nilufarxonmahmudova@gmail.com 88-162-34-04**

**Ilmiy rahbar: Abdullayev Muzrobjon**  
**<https://doi.org/10.5281/zenodo.16831429>**

**Annotatsiya.** Bugungi kunga kelib, jamiyatimizda har bir jabhada xotin-qizlarning roli yanada ortib bormoqda.

Ayniqsa yangi Ozbekiston yillarida muhtaram Prezidentimiz SH.Mirziyoyev boshchiligidagi olib borilayotgan islohotlar zaminida jamiyatda xotin-qizlarning rolini oshirish, gender tenglik masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda.

**Kalit so'zlar:** totalitar rejim, mafkura, kommunistik partiya, millat, siyosat, shaxs, ateizm, targ'ibot, insonparvarlik, vatanparvarlik

Mustaqillik tufayli xalqimiz tarixshunosligida soxtalash tirilgan sovet davri tarixini yangicha va xolis yondashuv asosida milliy goya nuqtai nazaridan mushohada qilish uchun imkoniyat yuzaga keldi.

RKP(b)ning XIII s'ezdida qabul qilingan «Ishchi va dehqon ayollar o'rtasida olib boriladigan ish to'g'risida»gi qarorda «partiya qo'mitalari tomonidan SHarq mehnatkash ayollari o'rtasida olib boriladigan ishga rahbarlik qilish, ishlab chiqarish va partiyaga jalb etishni kuchaytirish» masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Qaror asosida ayollar o'rtasida olib boriladigan ishni kuchaytirish uchun maxsus jamgarma tashkil etildi.

Sovet hokimiyati ayollarga ta'lim berish ularni ozod qilishning muhim mexanizmlaridan biri deb qaragan. SHuning uchun sovet hukumatining Turkistondagi xotin-qizlarni ijtimoiy hayotga tortishga doir dastlabki va muhim tadbirlaridan biri ularni ta'limga jalb etish va savodli qilish bo'lib, bunga erkaklar va ayollar yenghuquqliligiga erishishining zaruriy sharti sifatida qaraldi.

Natijada dastlabki maxsus xotin-qizlar maktablari tashkil etildi. Birinchi xotin- qizlar maktabi Toshkentning Beshyog'och dahasida Bashorat Jalilova tomonidan 1917 yilning dekabrda tashkil etilgan edi. Unda 42 nafar xotin-qizlar tahsil olgan. 1918 yilda Toshkentda 4 ta xotin-qizlar maktablari faoliyat ko'rsata boshlagan. Totalitar rejim mamlakatda o'z tarafdorlari sonini va markazning itoatkor xizmatkorlarini ko'paytirish singari siyosiy maqsadlardan kelib chiqib, xotin-qizlardan arzon ishchi kuchi sifatida foydalanish, qolaversa, ularni o'z siyosatini so'zsiz bajaruvchi itoatkor qatlamga aylantirishdek g'arazli maqsadlar yashiringan rejalar asosida niqoblangan mustamlakachilik siyosatni "ayyorona" tadbirlar orqali amalga oshirishga intildi 1919–1920 yillardan boshlab xotin-qizlar institutlari, o'rta texnik o'quv yurtlari tashkil etilib, ularda mahalliy millatga mansub qizlar ham ta'lim olgan. Biroq ular ta'lim oluvchilarning 7–8 foizini tashkil etar edi, xolos. Ayniqsa, qishloqlarda qizlarning o'qishga qatnashi qiyin masala bo'lib, aholining yangi maktablar borasidagi tushunchalari hali shakllanmagan edi.

O'zbek ayollarining o'z vazifasiga nisbatan mas'uliyat bilan yondoshuvi tufayli urush yillarida xalq xo'jaligida ma'lum yutuqlarga erishildi. SHu bilan birga, respublikaning barcha viloyatlarida agitator xotin-qizlar tomonidan fashizm ustidan g'alabaga ruhlantiruvchi, xalq xo'jaligini rivojlantirishda vatanparvarlik his-tuyg'ularini shakllantirishga qaratilgan

ma'ruzalar muntazam o'qib borilgan, davra suhbatlari tashkil etilgan. Bunday tadbirlar qizil choyxona va boshqa madaniy-oqartuv muassasalarida olib borilgan.

### References:

#### Используемая Литература:

#### Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. O'ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLARGA MUNOSABAT (X X ASRNING 20-80 YILLARI MISOLIDA) (o'quv qo'llanma) NILUFAR JO'RAEVA
2. Abdullaeva D. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ayolning roli.// O'zbekistonda oila, davlat va jamiyat kurilishida ayollarning roli va gender muammolari: Ilmiy-amaliy konf. Ma'ruzalari to'plami. — T.: 1999. — B. 38—42.
3. An'analar, din va ayollarning ijtimoiy maqomi / / O'zbekiston Respublikasi xotin-qizlarining ahvoli to'g'risida ma'ruza, RBEC / / Undz, 1999. — 95 b.
4. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash (Davriy to'plam, №1). — T.: 1999. — 218 b.
5. Kamolov U. O'zbekistonda xotin-qizlar maorifining rivojlanishi/ / Sovet maktabi. 1974. №1.B. 16—21.
6. Rahimova G. Jadidlar va ayollar masalasi / / Adabiy meros.1992. №1. B. 63—66